

URBANIZATSIYA

Shodmonova Dilfro'z Uktamovna

Kabi tumani 29-umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Tel: + 998914565661

Gmail: muhammadrizayevamadinabonu@gmail.com

Annotation: *Ushbu maqola urbanizatsiya jarayoni, uning sabablari, ijobiy va salbiy tomonlari hamda jamiyat va iqtisodiyotga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi. Urbanizatsiya — aholi va iqtisodiy faoliyatning qishloq hududlardan shahar hududlariga ko'chishi hamda shaharlarning kengayishi jarayoni sifatida tushuntiriladi. Maqolada urbanizatsiyaning sanoat rivojlanishi, infratuzilmaning yaxshilanishi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining kengayishi kabi ijobiy jihatlari ta'kidlanadi. Shu bilan birga, atrof-muhit ifloslanishi, shaharlar zichligi, ijtimoiy notenglik kabi muammolar ham yoritilgan. Maqola urbanizatsiyaning boshqarish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun takliflarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, maqola zamonaviy jamiyatlarda urbanizatsiyaning o'rni va ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

Kalit so'z: *Shaharlar, urbanizatsiya, qishloq, shahar, poytaxt shaharlar, shaharlarni muqaddasligi, bozor iqtisodiyoti va shaharlar, shaharlar, geografiyasining o'rganish obyekti.*

Urbanizatsiya (frans. *urbanisation*, ing. *urbanization*, lot. *urbanus* — shaharga mansub, *urbs* — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Urbanizatsiya — tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi demografikstatistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi.

Dastlabki shaharlar mil. av. 3—1ming yilliklarda Misrda, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Yevropa va Afrikaning O'rta dengiz sohillarida vujudga kelgan. Yunonrim dunyosida esa Rim va Karfagen sh.larining mavqei yuqori bo'lgan. O'rta asrlar va Uyg'onish davrida kapitalistik i.ch. unsurlari shakllana boshladi. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o'sib borishiga, konsentratsiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo'la boshladi.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o'sishi va shahar axrlisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o'sishi, shahar atrofi hududlarining ma'muriy jihatdan shaharga qo'shib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog'liqdir. Shaharlarning o'sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya'ni Urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta

shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo'lib, katta shaharlarga qo'shilib boradi va shaharlar aglomeratsiyasini hosil bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayoni avj olgan, alohida aglomeratsiyalarning qo'shilib ketishi natijasida megapolislar vujudga kelmoqda. Uning asosiy ko'rsatkichi shaharliklar sonining o'sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog'ining ortib borishidir. 20-asrning oxiri va 21-asr boshlarida dunyoda shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, ya'ni Urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa shahar aholisi salmog'ining ortib borishiga olib kelmokda. 1950-yil dunyo aholisining 28,9% shaharlarda yashagan. 1960-yil bu ko'rsatkich 33,9% ni, 1970-yil 37,4%, 1980-yil 41,1%, 1990-yil 45,8% va 2000-yil 51,2% ni tashkil etdi. Shahar aholisining salmog'i rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori (2000-yilda AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada 75% va Germaniyada 94%, Rossiyada 73% bo'lgan). Osiyo va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarda Urbanizatsiya jarayoni dunyoning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past. 2000-yilda shahar aholisining salmog'i Afg'oniston va Efiopiyada 11 — 14% ni, Miya va Turkiyada 45% ni tashkil etdi.

Urbanizatsiya hozirgi bosqichida katta shaharlarda aholi konsentratsiyalashuvining o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda millioner (1 mln. va undan ortiq aholi yashaydigan) shaharlar alohida o'rin egallaydi. 1900-yilda dunyo bo'yicha millioner shaharlar soni o'nta bo'lgan bo'lsa, 21-asrga kelib bu ko'rsatkich 200 dan oshdi. Dunyoda aholisi 10 mln. dan ortiq yirik shaharlar [Mexiko (25 mln.), Tokio (20 mln.), Seul (13 mln.), Pekin (11 mln.), Parij, Qohira, Buenos Ayres va London (10 mln.)] mavjud.

O'zbekistonda Urbanizatsiya jarayoni o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Urbanizatsiya rivojlanishi o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekistonda eng qad. shaharlar bilan birga 20-asrning 2yarmida vujudga kelgan shaharlar xam mavjud. 1913—80 yillarda O'zbekiston shaharlari soni va shahar aholisi salmog'i o'sdi. O'zbekistonda 120 ta shahar bo'lib, ularda 8249,3 ming kishi yashaydi (2003). Ularning 38 tasida aholi soni 20 mingga bo'lgan kichikroq shaharlar, 65 tasi 20 mingdan 100 mingga bo'lgan o'rta shaharlar, 16 tasi aholisi 100 mingdan 500 mingga bo'lgan yirik shaharlar va Toshkent millioner shahardir. 19-asrning oxiridan boshlab O'zbekistonda U. jarayoni rivojlanib kelmokda. O'zbekistonda keyingi yillarda Urbanizatsiya ko'lamiga, asosan, shahar aholisining tabiiy o'sish jarayoni kamayib borishi ta'sir etmokda. 1991-yil O'zbekistonda har 1000 aholiga nisbatan tabiiy o'sish 19,9 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2002-yilda bu ko'rsatkich 10,8 kishini tashkil etdi.

Urbanizatsiya - bu jamiyatning rivojlanishida shaharlarning roli ortib borishi va bu jarayon bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, demografik o'zgarishlarni anglatadi. Urbanizatsiya, shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan ham tavsiflanadi.

Urbanizatsiya jarayonining asosiy jihatlari:

Shahar aholisi sonining ko'payishi:

Urbanizatsiya eng ko'p shahar aholisi sonining oshishi bilan tavsiflanadi. Bu shahar hududlarida aholining zichlashishi va qishloq joylardan shaharlarga migratsiyaning ko'payishi bilan sodir bo'ladi.

Shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatining ortishi:

Urbanizatsiya jarayonida shaharlar iqtisodiy va ijtimoiy hayot markazlariga aylanadi. Ularda sanoat korxonalari, savdo markazlari, ta'lim va madaniyat muassasalari rivojlanadi.

Turmush tarzi va madaniyatda o'zgarishlar:

Shaharlarda aholining turmush tarzi va madaniyati qishloq joylardan farq qiladi. Shahar madaniyati, odatda, ko'proq xilma-xil va zamonaviy bo'ladi.

Aholi joylashuvida o'zgarishlar:

Urbanizatsiya, shuningdek, aholining joylashuvida ham o'zgarishlarga olib keladi. Shaharlar atrofida yangi turar-joy massivlari quriladi, bu esa shaharlarning hududiy kengayishiga olib keladi.

Urbanizatsiya jarayonining sabablari:

Sanoatlashtirish:

Shaharlarning sanoat markazlari sifatida rivojlanishi aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chishiga sabab bo'ladi.

Infratuzilmaning rivojlanishi:

Shaharlarda yaxshiroq yo'l, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlar mavjudligi aholini shaharlarga jalb qiladi.

Iqtisodiy imkoniyatlar:

Shaharlarda ish joylarining ko'pligi va yuqori maosh olish imkoniyati aholining shaharlarga migratsiyasini tezlashtiradi.

Qishloq joylardagi hayot sharoitining qiyinlashuvi:

Qishloq joylarda qishloq xo'jaligi mahsuldorligining pasayishi, tabiiy ofatlar va boshqa omillar aholining shaharlarga ko'chishiga turtki bo'ladi.

Urbanizatsiya jarayoni dunyoning ko'pgina davlatlarida sodir bo'lmoqda va ijobiy hamda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya — zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim jarayon hisoblanadi. Biroq, uni to'g'ri boshqarish va muammolarini hal qilish uchun kompleks strategiyalar ishlab chiqish zarur. Shu tariqa urbanizatsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лаппо Г.М. География городов.- М., 1997.
2. Солиев А.С. Шаҳарлар географияси.(Маъруза матни).- Т., 2000.
3. Qo'shimcha adabiyotlar
4. 3.Ата-Мирзаев О. Б., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Т.: Университет, 2002.
- 125 с.
6. 4.Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.- Т.,

7. 2004.
8. 5.Город в контексте глобальных процессов.-М6, МГУ, 2011.
9. 6.Доманьский Р. Экономическая география: динамический аспект. Пер. с польского. -М: Новый хронограф, 2010. -376 с.
10. 7.Перцик Е.Н. География городов.(Геоурбанистика). -М.1991.
11. 8.Пивоваров Ю. А. Россия и мировая урбанизация / Антропокультурная и пространственная динамика/. – Нальчик: Полиграфсервис, 2007. – 334
- с. 14. 9.Слука Н.А. Геодемографические феномены глобальных городов.-
15. Смоленск: "Ойкумена", 2009.
16. 10.Солиев А.С. Проблемы расселения и урбанизации в республиках
17. Средней Азии. -Т.: Фан, 1991.
11. Х.Мирзаахмедов. Шаҳарлар географияси. Ўқув-услубий мажмуа.
18. Наманаган., 2019, НамДУ АРМ ички тармоғи.
19. 12.Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон:
20. Халқаро илмий – амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007.
21. Internet saytlar:
12. <http://www.un.org/esa/population/publikations/WUR2005>. БМТ нинг
22. "Жаҳон урбанизацияси истикболлари".
13. <http://www.usbektourism/us/> - Тошкент, Самарқанд, Хива, Бухоро,
23. Шаҳрисабз, Термизнинг бой ва кўҳна тарихи.
14. <https://www.worldsbestcities.com/> - Энг йирик шаҳарлар.